

“Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyati tomonidan joriy yilning 15-dekabr kuni Farg‘ona viloyatida sayyor qabul tashkil etildi

2021 15 Dekabr

Unda aviakompaniyaning boshqarma boshliqlari, mas’ullar bilan birgalikda jismoniy va yuridik shaxslar, aviachiptalar sotuvi bo‘yicha agentlar, turistik kompaniyalar vakillari, tadbirkorlik subyektlari, yoshlar hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Tadbir boshida “Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyati tomonidan bunday tadbir ilk marotaba o‘tkazilayotgani ta’kidlandi. Aviakompaniyada amalga oshirilayotgan ishlar, aviatsiya sohasidagi yangiliklar va yangi loyihalar haqida, ayniqsa yo‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini oshirish maqsadida qanday qulayliklar yaratilayotgani haqida batafsil ma’lumotlar berildi.

Sayyor qabul doirasida yo‘lovchilarni qiynayotgan muammolar bo‘yicha savol-javob tariqasida ishtirokchilar bilan muloqot qilinib, aholining murojaatlari atroflicha o‘rganib chiqildi. Murojaatlarning aksariyat qismi joyida yechimini topdi, qo‘shimcha o‘rganish va vaqt talab qiladigan murojaatlar bo‘yicha mas’ul rahbar va xodimlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki ushbu sayyor qabul Instagram ijtimoiy tarmog‘ida jonli efirda uzatildi va uni 1400 ga yaqin obunachilar tamosha qilishdi. Bu o‘z navbatida uchrashuvni shaffof o‘tishiga va nafaqat respublikamiz balki chet davlatlardan ham kuzatib borishlariga imkon yaratdi.

Fotima O‘ktamova, ekobloger:

- Biz Farg‘onadan Toshkentga qatnovlar haftasiga ikki marta amalga oshirilayotganini bilamiz. Havo transporti biz uchun juda qulay, ayniqsa qishda. Umuman, Toshkent–Farg‘ona–Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha qatnovlar sonini ko‘paytirish rejalashtirilganmi?

Ushbu savolga va ekoblogerning talabiga quyidagicha javob berildi. “Toshkentdan Farg‘ona vodiysiga aviaqatnovlar sonini oshirishni keyingi yilga rejalashtirganmiz”.

Ta’kidlash joizki, uchrashuv doirasida Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga to’g’ridan-to’g’ri qatnovlar yo’lga qo’yilishi haqida ham takliflar bo’ldi. Bu aholining respublika ichida harakatlanish darajasini oshirish, yo’lovchilar oqimini ko’paytirish va mamlakatimiz ichki turizmini rivojlantirish imkonini beradi.

Telegram-bot yoki onlayn-maslahatchi yaratish kerakligi haqida yana bir taklif kelib tushdi, unda parvoz haqidagi barcha ma’lumotlar, ushbu mamlakatning yangi qoidalari va boshqa ma’lumotlar taqdim etilishi kerakligi haqida aytib o’tildi.

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi ushbu xalq bilan uchrashuvlarni har bir viloyatda uyushtirib, yo’lovchilarni qiynayotgan savollarga yechim topib, ularni taklif-mulohazalarini o’rganishda davom etadi.

Telegram: t.me/uzbekistanairways